



## YUKSAK MA'NAVIYATLI YOSHLARNI TARBIYALASHDA BUYUK ALLOMALARINING QARASHLARI

**Maxmudova Yulduzxon Allayarovna**

UrDU Ijtimoiy iqtisodiy fanlar fakulteti tyutori

[yulduz 901 @ g mail.com](mailto:yulduz901@gmail.com)

**Annotatsiya:** Muhtaram Prezidentimiz Sh.Mirziyoev Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Xalqimizda "ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi", degan hikmatli bir so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga etaklaydi" deya ta'kidlab o'tdilar.

*Tarbiya har bir insonning hayotda orttirgan  
saboqlari va intellektual salohiyatlarining ijobiy  
ko'nikmalarini o'zgalarga berish jarayoni*

Darhaqiqat, sog'lom bolani sog'lom va ahil oilada sog'lom ona dunyoga keltiradi. Bola tarbiyasida esa oilaning o'rni va ta'siri katta. Chunki, olimlarning ta'kidlashicha, har bir odam umri davomida oladigan ma'lumotning 70 foizini 5 yoshgacha bo'lgan davrda olar ekan. Demak, oila boshlig'i bo'lmish ota va ona o'zlarining yaxshi xisobotlari bilan o'rnak bo'lishlari kerak. Chunki, xalqimizning "Qush uyasida ko'rganini qiladi", degan maqoli bejizga aytilmagan. Ilm-ma'rifat taraqqiyot ko'zi bo'lsa, tarbiya uning miyasi, ta'lim esa



yuragidir. Shu boisdan ham “Najot – ta’limda, najot – tarbiyada, najot – bilimda”, degan o’gitlar barchamizni jiddiy o’ylashga chorlaydi.

Bugun ilm-fan va ta’lim izchil rivojlanib borayotgan bir davrda hech shak-shubhasiz tarbiya ta’limning asosida turishi shartdir. Shunday ekan, ilm-fan ta’lim-tarbiya asosida olib borilishi maqsadga muvofiqdir. Qolaversa, har bir pedagog, muallim va ustozning ta’lim berishdan maqsadi – kelajagi porloq, Vatan va el-yurt xizmatida turadigan kadrlarni tarbiyalash bo’lar ekan, bunday ta’limtarbiya o’z samarasini bermay qolmaydi. Ya’ni, bugungi kunning o’qituvchi va muallimi o’zi ta’lim berayotgan shaxsga fidoyilik bilan ta’lim berishi, qolaversa jonkuyar tarbiyachi bo’lishi shart. Birinchi Prezidentimiz Islom Karimov aytganlaridek: “Ta’limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta’limdan ajratib bo’lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”.

#### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Yaxshi ta’lim-tarbiya olgan bola kelajakda oilasiga ham, vataniga ham foydasi tegadigan komil inson bo’lib voyaga etadi. Yomon tarbiya ko’rgan bolalarni esa oilasiga ham, yurtiga ham nafidan ko’ra ziyoni ko’proq tegadi. Rus yozuvchisi M.Gorkiy ta’biri bilan aytganda "Yomon bolalar uchun ota-onani jazolamoq kerak". Yoki ingliz adibi T.Fuller yozganidek, "O’z o’g’lini hech bir foydali ishga o’rgatmagan odam o’g’ri boqayotgan bo’ladi". Ta’lim-tarbiyali, sog’lom bola oila quvonchi, millat tayanchi, kelajagimiz poydevoridir.

Buyuk vatandoshimiz Imom G’azzoliy shunday deydi: “Bolalar ota-onalariga berilgan bir omonatdir. Bolaning qalbi har qanday naqshu tasvirdan xoli bir qimmatbaho gavhardir. U qanday naqsh solinsa, qabul qiladi, qayoqqa bukilsa, egiladi. Agar yaxshilikka o’rgatilsa, shu bilan o’sadi va dunyoyu oxiratda saodatga erishadi. Uning savobiga otaonasi ham, har bir muallimu ustozlari ham sherik bo’ladilar. Agar yomonlikka odatlantirilsa, hayvonlardek o’z holiga tashlab qo’yilsa, oxiroqibat halok bo’ladi. Gunohi esa uning tarbiyasi uchun javobgar bo’lganlarning gardaniga tushadi”.



"Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir", - deya yozgan edi ma'rifatparvar alloma Abdulla Avloniy. Buyuk ma'rifatparvar bobomizning bu so'zlari asrimiz boshida millatimiz uchun qanchalar muhim va dolzarb bo'lgan bo'lsa, hozirgi vaqtda ham biz uchun shunchalik, balki undan ham ko'ra muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi".

Farobiyning fikricha insonning va jamoatning g'alabaga erishuvi, yaxshilikni qo'lga kiritishi, axloqiy va aqliy mukammallikka ko'tarilishi inson va jamoaning o'z qo'lidadir. U davlatni fozil va johil davlatlarga bo'ladi. Fazilatli shaharlarda ilm-fan, falsafa, axloq-ma'rifat birinchi o'rinda bo'lmog'i lozim deb biladi. Shunda jamiyat etuklikka erishadi. Fozil shahar boshlig'i bilimli, haqiqatni sevuvchi, yolg'on va yolg'onchilarga nafrat bilan qarashi, adolatni yaxshi ko'ruvchi va adolat uchun kurashuvchi bo'lishi kerak deb aytadi. Farobiy insonni kamoloti uchun xizmat qilgan, hayr-ehsonli ishlar, go'zal insoniy fazilatlarni yaxshilik deb hisoblaydi. Insonning kamolotiga to'sqinlik qiluvchi dangasalik, bekorchilik kabi yomon odatlar, bilimsizlik, ongsizlik, kasb-hunarga ega bo'lmaslik kabi nuqsonlarni yomonlik deb, kishilarni undan ogohlantiradi.

Farobiy hayotning oliy maqsadi baxt-saodatga erishuvdan iborat, kishilar bunga olamni o'rganish, kasb-hunar va ilmlarni o'zlashtirish – ma'rifatli bo'lish orqali erishadi deb qaraydi.

Ibn Sino falsafada Aristotel ta'limoti izdan borib, Farobiy g'oyalarini yanada kamolotga erishtirdi. Faylasuf Sharq allomalariga xos bo'lgan xususiyat, ya'ni axloq, odob, inson psixologiyasining kamolotiga alohida ahamiyat beradi.

Ayniqsa, Ibn Sinoning "Tib qonunlari" asarida talqin etilgan ta'lim-tarbiya xususidagi fikrlar g'oyat muhimdir. U bola tarbiyasini tug'ilmasdan ona qornidaligidanoq boshlash masalasiga alohida e'tibor beradi. Uning fikricha, bola tug'ilganidan boshlab esa ayoqqa turguncha ma'lum tartibda tarbiyalanib borishi lozim. Bu tartib o'z vaqtida ovqatlantirish, cho'miltirish, yo'rgaklash, uxlatish kabi muayyan tartib va qoidalardan iborat.



Bola tabiatini mustahkamlashdagi muhim vositalar asta-sekin tebratish, musiqa eshittirish, ashula aytishdan iborat bo'lib, yaxshi uxlaydi. Tebratish uning tanasiga, musiqa uning ruhiyatiga orom bahsh etadi. "Bolaga do'q qilma, yomon bo'lma qo'pol, uyqu qochar, qurqar, oxir bulur battol, yumshoq o'rni o'xlaganda, qarong'uluq tushub tursin misli tunday... Uyg'oq chog'i yorug'likdan ayirmagil, yulduz – samo ko'rsun bola shodlinur dil. Rang-tuslarni ko'rsat unga turli-tuman, kunduz kuni, etmoq ersang kuzni ravshan. Gar istasang, o'rgatmoqqa so'zi kalom, erkalatib ovoz chiqar har xil muqom".

Beruniy fikricha, kishilar uchun dunyoda turli hollar bor. Bu maqtaluvchi – yaxshilik va qoralanuvchi – yomonlikdir. Maqtaluvchi yaxshi hollar bo'lib, ularning tayanchini poklik va tozalik deb ko'rsatdi.

Beruniy o'z davrining eng ko'zga ko'ringan ilm-fan homiysi edi. U mamlakat ravnaqini fan, ma'rifat ravnaqida ko'rgan. Ilm-fan, ma'rifat sahovatli xizmatni o'tashi mumkin deb hisoblaydi. U shunday yozadi: "Mening butun fikru-yodim, qalbim – bilimlarni targ'ib qilishga qaratilgan, chunki men bilim orttirish lazzatidan bahramand bo'ldim. Buni men o'zim uchun katta baxt deb hisoblayman".

Insonning oliy fazilati boshqalar haqida, ayniqsa, kambag'allar haqida g'amxo'rlik qilishdan iboratdir. Beruniy doimo xalqlarning do'st, inoq, ittifoq bo'lib yashashi uchun kurashib keldi. U insonga, u yaratgan madaniyatga qirg'in keltiruvchi urushlarni qoraladi. Beruniy madaniy hamkorlik va ilm-ma'rifatning keng tarqalishiga katta e'tibor bergan allomadir.

Yusuf Xos Hojib ilm va ma'rifatni jamiyatning taraqqiyotiga, gullab-yashnashiga olib keluvchi kuch deb bilib, ularni egallashgan da'vat etadi. U kishini zulmat ichidagi uyga, bilimni esa ana shu uyni nurafshon etuvchi mash'alga o'xshatadi.

Shoir kishilarni so'zlaganda o'ylab gapirishga chaqiradi. So'zingga ehtiyot bo'l, boshing ketmasin, tilingga ehtiyoj bo'l, tishing sinmasin. Ma'nodor so'z donolik alomati, bema'ni so'z mahmadanagarchilik axmoqlik alomatidir. Shu bois odam ko'proq quloq solib, kam gapirishi kerak deb aytadi. Yusuf Xos Xojib shuningdek, insonning tashqi



qiyofasi uning ichki ma'naviy dunyosiga mos bo'lishiga katta ahamiyat beradi. Mutafakkir yolg'onchi, munofiq kishilar jamiyat uchun zararli, bunday kishilardan uzoq bo'lish kerak deydi. Shunday qilib, XI asrda yashab ijod qilgan Yusuf Xos Hojib «Qutadg'u bilig» asarida ma'rifatparvarlik, yuksak axloqiylik g'oyalarini ilgari suradi. Bu asar katta ma'naviy, ma'rifiy va tarbiyaviy ahamiyatga ega.

### **XULOSA**

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, O'rta Osiyo xalqlarining ma'naviy va ma'rifiy qarashlari xalqimizning boy ma'naviy merosining ajralmas qismi sanaladi. O'rta Osiyo xalqlari ma'naviy va ma'rifiy qarashlarida inson va uning fazilatlari, ta'lim-tarbiya, axloq muammolari markaziy o'rinni egallab keldi. Unda komil inson muammosi o'ziga xos ravishda o'z echimini topganligini alohida qayd etishimiz mumkin.

O'rta Osiyo tarixiy vaqealarga g'oyat boy o'lka bo'lishi bilan birga azaldan ilm-fan, madaniyat va ma'naviyatning markazidan biri bo'lib kelgan. Bu o'lka dunyoga ma'naviyat va ma'rifatning barcha sohalarida yuzlab, minglab jahonshumul ulug' zotlar, davlat arboblari tarbiyalab bergan. Umumbashariyat ma'rifatparvarligini yaratishda buyuk ajdodlarimiz bevosita ishtirok etganlar uning taraqqiyoti va boyishga ulkan hissa qo'shganlar. O'rta Osiyo madaniy merosi jahon madaniyati va ma'rifatining uzviy ajralmas tarkibiy qismidir.

### **Foydalangan adabiyotlar:**

1. Shavkat Mirziyoevning 2023 yil Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. 2023 yil – Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili.
2. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. T: O'zbekiston, 1994 yil.
3. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T: Sharq, 1998 yil.
4. Karimov I.A. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch – Toshkent: Ma'naviyat, 2008 – 174 b.